
FARG'ONA SHAHRIDA "O'ZBEKISTON – YOSHLAR MAMLAKATI" SHIORI OSTIDA YOSHLAR SAYLI HAMDA GALA-KONTSERT BO'LIB O'TDI

Farg'ona shahridagi Islom Karimov nomidagi viloyat teatr-kontsert saroyi ochiq sahnida "O'zbekiston – yoshlar mamlakati" shiori ostida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi loyihasi mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan yoshlar sayli hamda gala-kontsert bo'lib o'tdi.

Tadbirda Farg'ona politexnika instituti bo'lim boshlig'i, yosh olim Bekzod Abduxalilov, Farg'ona davlat universiteti doktoranti, yosh olim, "Kelajak bunyodkori" mukofoti sohibasi Zarnigor Ubaydillaeva mamlakatimizda yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida jadal islohotlar amalga oshirilayotganligini qayd etib, Konstitutsiyaga kiritilayotgan yangiliklar, ularning mazmun-mohiyati haqida to'xtalib o'tdilar.

Bosh Qomusimizga ham xalqimizning taklif va tashabbuslari bilan bir qator o'zgartirishlar kiritilmoqda va mazkur o'zgarishlar jarayonida yoshlar yo'nalishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning moddalari 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshayotgani, yoshlar bilan bevosita bog'liq 6 ta moddalarning qo'shilayotgani mazkur loyihaga yoshlarning qiziqishini oshirmoqda. Targ'ibot tadbiri davomida shular xususida ma'lumotlar berildi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli rejissyor, Xilol Nasimov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, aktyor Anvar Azimov, aktyor va xonanda Rasulxon Qodirxonovlar ham o'z chiqishlarida yoshlarni muhim siyosiy jarayonlarga befarq bo'lmaslikka chorladilar.

Gala-kontsert dasturi doirasida respublika va viloyatimizdagi taniqli san'atkorlar, estrada xonandalarining musiqiy chiqishlari yoshlarning kayfiyatini ko'tarilishiga sabab bo'ldi. "O'zbekiston – yoshlar mamlakati" shiori ostida o'tkazilgan yoshlar sayli yakunida namoyish etilgan mushakbozlik tadbir ishtirokchilariga hush kayfiyat ulashdi.

2023-04-03 15:18:41